

# TALABALARGA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISHNING MAZMUNI

**Xasanova Gulnoza Ilhom qizi**

**Maktabgacha ta'lim metodikasi**

**kafedrası o'qituvchisi**

**Aktamova Kibriyo**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda ma'naviy –axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati va uning pedagogik mazmuni haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy tarbiya , ta'lim-tarbiya sifati, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-axloqiy talab, xulq-atvor, axloqiy tarbiya, axloqiy me'yor

**Аннотация:** В статье рассматривается важность формирования духовно-нравственного воспитания студентов и его педагогическое содержание.

**Ключевые слова:** духовное воспитание, качество образования, воспитание в духе патриотизма, социально-нравственные требования, поведение, нравственное воспитание, нравственные нормы.

**Annotation:** This article discusses the importance of the formation of spiritual and moral education of students and its pedagogical content.

**Keywords:** spiritual education, quality of education, upbringing in the spirit of patriotism, social and moral requirements, behavior, moral education, moral norms

## **KIRISH**

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, har tomonlama ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Bu ustuvor masala yuzasidan davlatimiz rahbariyati tomonidan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil


3-maydagi PQ-4307-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ham talabalarda ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bu kabi vazifalaradan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, talabalarda ma'naviy –axloqiy ytarbiyani shakllantirishimiz, oila instituti va ta'lim muassasalari bilan uzviy aloqada bo'lish muhim sanaladi. 2017 yil 13 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigida ham Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egaligi, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanaishi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'layotganligi, fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rishimiz zarurligini ta'kidlangan.

## **NATIJARLAR**

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy-axloqiy talablarga mos keluvchi, axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida talabalar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etis hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:



Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra, inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'likligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimlilik, talabalar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi kabilardan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan bog'liq bo'lgan tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Bundan tashqari barcha ta'lim muassasasida talaba- yoshlarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarining eng muhim tamoyillardan biri - ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati talaba shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham yana bir eng qimmatli qadriyat- erkinlik hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida talaba shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

## **MUHOKAMA**

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imoiyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omili hisoblanadi. Safo Ochilov o'zbek xalqining boy ma'naviy merosiga e'tibor qaratib "Avesto" va "Qur'on" kitoblarida ma'naviy tarbiya manbaa ekanligini ko'rsatadi. Bundan tshqari ma'naviy tarbiya tarixini o'rganish muhim didaktik ahamiyatga ega. Al-Xorazmiy (780-850), Imom Al-Buxoriy (810-870), Imom Al-Marvaziy (780-855), Imom At-Termiziy (824-892), Abu Nasr Farobiy (870-930), Abu Rayhon Beruniy (970-1084), Ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy (1044-1170), Az-Zamaxshariy (1070-1143), Najmiddin Kubro (1145-1221), Paxlavon Maxmud (12247-1326), Alisher Navoiy (1141-1501), Ogahiy (1809-1914) kabi buyuk allomalarimizni merosi to'liq ma'noda ma'naviyat manbai hisoblanadi. Shular qatorida XIX-XX asrlarda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar (Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat) ning bu boradagi qarashlari bugun ham o'zini mohiyatini yo'qotmagan, hatto, aytish mumkinki, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash ishida metodologik asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tarbiya va ta'limni xech qachon bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lgan, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar talaba-yoshlarni yetishtirib beradi. Ma'naviyat - insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloqi hamda odobi, avlodlar tajribasi asosida pedagoglarimiz nazorati ostida shakllanib boradi. Shunday ekan biz pedagoglar ta'lim jarayonida tarbiyaning xam uzviyligini ta'minlagan xolda talaba yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish borishimiz va ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olishimiz zarurdir.

## **REFERENCE**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

Xasanova, G. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING

MAZMUNIMAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4355>

Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021

Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.

Xasanova, G. (2021). МАКТАБGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4430>

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH](#) , *Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal*

Gulnoza Xasanova, [OILADA BOLALARGA MILLIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI](#) . , *Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)*

Gulnoza Xasanova, [TARBIYA TUSHUNCHASI](#) , *Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal*

Gulnoza Xasanova, [SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR](#) , *Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)*

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБGACHA YOSHDAGI BOLALARGA QO'L MEKNATI ORQALI AQLIY TARBIYA BERISHNING MAZMUNI](#) , *Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal*

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБGACHA YOSHDAGI BOLALAR KITOBXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI](#) , *Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)*

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БОЛА  
НУТҚИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ MAZMUNI](#), [Мактабгача таълим  
журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal \(2021\)](#)

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARGA  
AQLIY ТАРБИЯ BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING  
MAZMUNI](#)[МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY  
ТАРБИЯ BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI](#),  
[Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal \(2021\):  
Preschool education journal](#)

Xasanova, G. (2021). «ПЕДАГОГ ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ  
ПЕДАГОГИК КОМПИТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ  
MAZMUNI». *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from  
<https://ruslit.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2809>